

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası professor v.b.
E-mail: oybekdavlatov123@gmail.com
ORCID: 0009-0008-3256-4077*

TALABALARDA AXBOROT-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli jamiyat va katta hajmdagi ma'lumotlar muhiti sharoitida talabalarda axborot-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy nazariy va me'yoriy asoslarga tayanib, axborot-analitik kompetentlik to'rt o'zaro integratsiyalashgan komponent – kognitiv, operatsion, motivatsion va refleksivdan iborat yaxlit dinamik tizim sifatida modelashtirilgan. Har bir komponentning mohiyati ochib berilib, ularni shakllantirishga qaratilgan maxsus didaktik vositalar (manba pasporti, qiyosiy jadval, annotatsiyalangan bibliografiya, elektron resurslar xaritasi va refleksiya jurnali) ilmiy asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli jamiyat, axborot-analitik kompetentlik, tanqidiy fikrlash, didaktik vositalar, media savodxonlik, kompetentlik komponentlari, pedagogik model.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

***Аннотация.** В статье проанализированы педагогические возможности развития информационно-аналитической компетентности студентов в условиях цифрового общества и среды больших объёмов данных. На основе современных теоретических и нормативно-правовых положений информационно-аналитическая компетентность смоделирована как целостная динамическая система, состоящая из четырёх взаимосвязанных и интегрированных компонентов: когнитивного, операционального, мотивационного и рефлексивного. Раскрыта сущность каждого компонента и научно обоснованы специальные дидактические средства, направленные на*

их развитие, включая паспорт источника, сравнительную таблицу, аннотированную библиографию, карту электронных ресурсов и журнал рефлексии.

Ключевые слова: цифровое общество, информационно-аналитическая компетентность, критическое мышление, дидактические средства, медиаграмотность, компоненты компетентности, педагогическая модель.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING INFORMATION AND ANALYTICAL COMPETENCE IN STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical potential for developing students' information-analytical competence in the context of a digital society and a big-data environment. Drawing on contemporary theoretical and regulatory frameworks, information-analytical competence is modeled as an integrated dynamic system consisting of four interrelated components: cognitive, operational, motivational, and reflective. The essence of each component is examined, and special didactic tools aimed at their development are scientifically substantiated, including a source passport, comparative table, annotated bibliography, electronic resource map, and reflection journal.*

Keywords: *digital society, information-analytical competence, critical thinking, didactic tools, media literacy, competence components, pedagogical model.*

Bugungi raqamlashgan davrda jamiyat a'zolari murakkab va yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya muhiti bilan muntazam to'qnash kelmoqda. Bunday sharoitda asosiy pedagogik muammo axborotni shunchaki izlash bilan emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, manbalarning ishonchliligini baholash va ular asosida ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirish bilan bog'liq. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va katta hajmdagi ma'lumotlarning ko'payishi bo'lajak mutaxassislardan axborotni ongli va tizimli idrok etish, uning manbasi va ishonchliligini aniqlash kompetensiyalarini talab qilmoqda. Mazkur muammo O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy

hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, xalqaro standartlar asosida mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash vazifasi belgilangan [1]. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida esa axborot va media savodxonligini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan [2]. Ushbu rasmiy hujjatlar talabalarning axborot-analitik kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini tasdiqlaydi. Pedagogika fanida kompetentlik tuzilmasini tahlil qilishning ikki asosiy metodologik yo'nalishi mavjud. Birinchisi, kompetentlikni bajariladigan faoliyat orqali tavsiflovchi funksional-faoliyatli yondashuv. Ikkinchisi, kompetentli shaxsning ichki sifatleri (bilim, ko'nikma, munosabat) orqali izohlovchi shaxsiy-rivojlantiruvchi yondashuv. Kompetentlik nazariyasining G'arb pedagogika-psixologiyasidagi asoschilaridan biri J.Raven kompetentlikni "ko'p sonli, nisbatan mustaqil komponentlardan tashkil topgan" hodisa sifatida ta'riflab, "kompetentlik turlari – motivlashgan qobiliyatlardir", deb ta'kidlagan [3, 253–258-b]. Bu g'oya rus pedagogika maktabida ham rivojlantirildi: I.A.Zimnyaya kalit kompetentliklarning tayyorlik (motivatsion), bilim (kognitiv), tajriba (xulq-atvor), qadriyatli munosabat va emotsional-irodaviy regulyatsiya kabi tarkibiy qismlarga ega ekanligini asoslagan [4, 25-b], A.V.Xutorskoy esa kompetentlikni shaxsning nostandart vaziyatlarda mustaqil va samarali faoliyat yuritish qobiliyati sifatida talqin qiladi [5, 58–64-b].

Mazkur metodologik asoslarga tayangan holda, maqolada talabalarning axborot-analitik kompetentligi axborot bilan ishlash jarayonida zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma, motivatsiya va o'z faoliyatini baholash qobiliyatlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asosida shakllanadigan yaxlit dinamik tizim sifatida talqin etiladi. Uning tarkibiy tuzilmasini kognitiv, operatsion, motivatsion va reflektiv komponentlar tashkil etadi. Quyida mazkur komponentlarning mazmun-mohiyati va axborot-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni izchil yoritib beriladi.

Kognitiv component – talabaning axborot tabiati, manbalar tipologiyasi va ularning ishonchlilik mezonlari haqidagi bilimlarini o'z ichiga oladi. Amerika kollej va tadqiqot kutubxonalari assotsiatsiyasi (ACRL) tomonidan ishlab chiqilgan Oliy ta'lim uchun axborot savodxonligi konseptual asosida axborot savodxonligi shunchaki texnik ko'nikma emas, balki chuqur bilish va tushunish madaniyati sifatida talqin etiladi [6, 2–3-b]. Tarixiy va madaniy manbalar bilan ishlash kontekstida bu komponent talabaning manba turlari, ularning yaratilish konteksti va muallif pozitsiyasi haqidagi bilimlarini qamrab oladi. S.Vaynburgning tarixchilar va yuqori bosqich talabalarining hujjatlarni tahlil qilish jarayonini qiyosiy o'rgangan klassik tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, professional tadqiqotchilar manbani kontekstlashtirish, muallif pozitsiyasini aniqlash va boshqa manbalar bilan taqqoslash kabi murakkab kognitiv strategiyalarni izchil qo'llasa, talabalar ko'pincha matnni faqat sirtqi, deklarativ darajada idrok etadi [7, 73–87-b]. Bu xulosa kognitiv komponentning tabiiy ravishda emas, balki maxsus, izchil pedagogik yondashuv orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

Operatsion component – talabaning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini ifodalaydi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan media va axborot savodxonligi o'qituvchilar uchun o'quv dasturida qidirish, baholash va foydalanish ko'nikmalari mediasavodxonlikning amaliy o'zagi sifatida ko'rsatilgan [8]. Operatsion komponentning amaliy vositalari sifatida mazkur tadqiqotda to'rt asosiy didaktik instrument ishlab chiqilgan: manba pasporti (bibliografik va kontekstual ma'lumotlarni tizimlashtirish shablони), qiyosiy jadval (parallel solishtirish vositasi), annotatsiyalangan bibliografiya (qisqa tanqidiy izoh berish amaliyoti) va elektron resurslar xaritasi (tematik va xronologik bog'lanishlarni vizual tasvirlash vositasi). Bu to'rt vosita ketma-ket qo'llanilganda talabaning bir manbadan tizimli bilim olish jarayonini bosqichma-bosqich kuzatish va boshqarish imkonini beradi. Motivatsion component – talabaning axborot-analitik faoliyatga nisbatan ichki ehtiyoji va o'z faoliyatini mustaqil boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. B.Zimmerman ishlab chiqqan o'z-o'zini boshqaruvchi

o'qitish nazariyasiga ko'ra, samarali o'rganuvchi oldindan rejalashtirish, bajarish va o'z-o'zini baholash bosqichlaridan iborat uch bosqichli tsiklni amalga oshiradi [9, 65-b]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat kognitiv qiziqishga tayangan motivatsiya beqaror bo'lib, vazifa qiyinlashganda tezda so'nadi, qadriyatli yo'nalganlikka asoslangan motivatsiya esa qiyinchiliklarga qaramay barqaror saqlanadi. Shu sababli didaktik jarayonni loyihalashtirishda dastlab talabani kognitiv qiziqishini uyg'otish, so'ngra bu qiziqishni milliy-madaniy o'ziga xoslik va tarixiy uzviylik tuyg'usiga chuqurlashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv component – talabani o'z bilish jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash, ya'ni metakognitiv qobiliyatini ifodalaydi. Metakognisiya tushunchasi J.Flavellning klassik tadqiqotiga borib taqaladi; u metakognisiyani shaxsning o'z kognitiv jarayonlari haqidagi bilimi sifatida ta'riflab, bu bilimning rejalashtirish, monitoring va baholashdan iborat ekanini asoslagan [10, 906-b]. P.Facione asoslagan tanqidiy fikrlash nazariyasida ham refleksiya tanqidiy fikrlashning olti asosiy kognitiv ko'nikmasidan biri sifatida belgilanadi [11, 2, 4-b]. Refleksiv komponentni amaliy rivojlantirish uchun didaktik jarayonga maxsus refleksiya jurnali yoki tahlil kundaligi kabi vositalarni kiritish samarali hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilingan to'rt komponent bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro integrativ bog'liqlikda namoyon bo'ladi: kognitiv komponent operatsion komponentga negiz yaratadi, operatsion faoliyat natijasi motivatsion komponent orqali mustahkamlanadi, refleksiv komponent esa barcha uch komponentni nazorat qilib, talabani o'z faoliyatini doimiy takomillashtirishini ta'minlaydi. Bu integratsiyani uch bosqichli rivojlanish darajalari orqali quyidagicha umumlashtirish mumkin: Bosqichma-bosqich, izchil metodikaning amaliy samaradorligi A.Fedorov va A.Levitskayaning keng qamrovli eksperimental tadqiqoti bilan ham tasdiqlanadi: yetti indikator asosida bir o'quv yili davomida o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotda media ta'lim kursini izchil o'tagan eksperimental guruh talabalarining kompetentlik ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan to'rt baravar yuqori bo'lgan. Mazkur tadqiqotning indikatorlar tizimi bilan ushbu

maqolada taklif etilgan to'rt komponentli model o'rtasida aniq konseptual moslik kuzatiladi, bu esa tuzilmaning xalqaro ilmiy amaliyotdagi isbotlanganligini ko'rsatadi.

Axborot-analitik kompetentlik komponentlarining rivojlanish darajalari

Komponent	Boshlang'ich daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
Kognitiv	Kognitiv	Kognitiv	Kognitiv
Manbaning tashqi belgilarini ajratadi	Manbaning tashqi belgilarini ajratadi	Manbaning tashqi belgilarini ajratadi	Manbaning tashqi belgilarini ajratadi
Manbani tarixiy kontekstga joylashtiradi	Manbani tarixiy kontekstga joylashtiradi	Manbani tarixiy kontekstga joylashtiradi	Manbani tarixiy kontekstga joylashtiradi
Manbani mustaqil, tanqidiy baholaydi	Manbani mustaqil, tanqidiy baholaydi	Manbani mustaqil, tanqidiy baholaydi	Manbani mustaqil, tanqidiy baholaydi

Xulosa qilib aytish mumkinki, nazariy va metodologik tahlillar natijasida talabalarning axborot-analitik kompetentligi bir martalik o'zlashtirish natijasi emas, balki kognitiv, operatsion, motivatsion va refleksiv komponentlarning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan dinamik tizim ekanligi aniqlandi. Mazkur komponentlarning har biri xalqaro va mintaqaviy ilmiy-nazariy manbalarda o'zining nazariy hamda bibliografik asoslariga ega bo'lib, ularning integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan model zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg'unlashadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kognitiv komponent talabaning faol bilish jarayoni va axborotni anglash faoliyati orqali, operatsion komponent axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va tahlil qilishga yo'naltirilgan maxsus didaktik vositalar asosida, motivatsion komponent mazkur faoliyatga nisbatan qadriyatli

munosabat va barqaror ichki motivatsiyani shakllantirish orqali, refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishni ta'minlovchi metakognitiv mexanizmlar yordamida samarali rivojlantirilishi mumkin. Shu jihatdan, axborot-analitik kompetentlikni rivojlantirish mazkur komponentlarning alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda izchil takomillashtirilishini nazarda tutadi.

Yuqoridagi xulosalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadida quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi: talabalarga tarixiy va madaniy manbalar bilan ishlashni o'rgatishda semestr davomida oddiydan murakkabga qarab tuzilgan topshiriqlar tizimini joriy etish tavsiya etiladi; talabalarning manbalarni izlash, tahlil qilish va taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun manba pasporti, qiyosiy jadval, annotatsiyalangan bibliografiya va elektron resurslar xaritasi kabi topshiriqlardan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq; ta'lim jarayonini dastlab talabalarda tarixiy va madaniy manbalarga qiziqish uyg'otish, keyinchalik ushbu qiziqishni milliy va madaniy qadriyatlarni anglash hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga yo'naltirish lozim; refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'quv jarayonida refleksiya jurnali, yoki tahlil kundaligidan foydalanish, talabalarga manba bilan ishlash jarayonida qanday fikrlagani, qanday xulosaga kelgani va qanday qiyinchiliklarga duch kelganini yozma ravishda tahlil qilish imkonini berish tavsiya etiladi; talabalarning axborot-analitik kompetentligini aniqlashda faqat testlardan foydalanish bilan cheklanmasdan, real tarixiy yoki madaniy manbani izlash, tekshirish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishni talab qiladigan amaliy-senariy topshiriqlarni ham qo'llash maqsadga muvofiq; mazkur yondashuvning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilarning ham kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Shu maqsadda ular uchun tarixiy manbalar bilan ishlash, manbashunoslik hamda raqamli axborotni izlash, tekshirish va tahlil qilish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.* – Toshkent, 2019.
2. *“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni.* – Toshkent, 2020.
3. Равен Ж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Ж.Равен; пер. с англ. под ред. В.И.Белопольского. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 396 с.
4. Зимняя И. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
5. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
6. Association of College and Research Libraries (ACRL). *Framework for Information Literacy for Higher Education.* – Chicago: American Library Association, 2015. – 24 p.
7. Wineburg S. *On the reading of historical texts: Notes on the breach between school and academy* // American Educational Research Journal. – 1991. – Vol. 28. – №3. – P. 495–519.
8. UNESCO. *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers* // UNESCO. – Paris: UNESCO Publishing, 2011. – 185 p.
9. Zimmerman B. *Becoming a Self-Regulated Learner* // Current Directions in Psychological Science. – 2002. – Vol. 11. – №5. – P. 173–177.
10. Flavell J. *Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry* // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34. – №10. – P. 906–911.